MIRZACHO‘LNI O‘ZLASHTIRILISHI DAVRIDAGI MUAMMOLAR TAHLILI

Xakimov Ravshan Raimovich
Guliston davlat pedagogika instituti
“Tarix va san’atshunoslik” kafedrasi, o‘qituvchisi
e-mail: rovshik721@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Mirzacho‘lni o‘zlashtirish yillaridagi qarorlar va ularni bajarilishi masalasidagi muammolar, urush yillarida asosiy ishchi kuchi frontga jalq qilinganligi, Mirzacho‘l yerlariga moslashmagan boshqa xalqlarni ko‘chirilganligi masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Mirzacho‘l, partov, sholi, sotqin, xoin, demografik, sifatsiz, bo‘z yer, dekret, Xilkovo.

Annotation: In the article, the decisions made during the development of Mirzachol and the problems of their implementation, the fact that the main workforce was sent to the front during the war, and the issues of resettlement of other peoples are covered.

Key words: Mirzachol, partov, sholi, traitor, traitor, demographic, poor quality, wasteland, decree, Khilkovo.

Tarixiy ma’lumotlarga nazar tashlaydigan bo‘lsak, O‘zbekistonda sovet hokimiyatining dastlabki yillaridanoq paxtachilikni jadal rivojlantirish poydevoriga asos solindi. Bu davrda respublikada paxtachilikning rivojlantirilishi faqatgina iqtisodiy vazifa bo‘lib qolmay, siyosiy va mafkuraviy ahamiyat kasb etardi.

Shu o‘rinda qayd etish kerakki, Sovet davlati tashkil topgandan beri o‘tgan davr mobaynida ishlab chiqaruvchi kuchlarni mamlakat bo‘ylab joylashtirish, ularni rivojlantirish masalalari yangi bo‘z yerlarni o‘zlashtirish, yer osti qazilma boyliklarni ishga solish masalalari bilan bevosita bog‘liq holda olib borildi. Biroq, shuni ta’kidlash muhimki, bunday o‘zlashtirilayotgan hududlarning aksariyatidagi iqlim, tabiiy-geografik sharoitlari inson hayoti, uning yashash sharoiti uchun katta qiyinchiliklar tug‘dirdi. Tarixan olib qaraganda o‘lkada bo‘z yerlarni o‘zlashtirish, ularga suv chiqarish ishlari, garchi Turkiston Rossiya imperiyasi tomonidan zabt etilganidan keyin boshlangan bo‘lsada, bu harakat ulkan ishning debochasi edi, xolos.

Shuning uchun ham faqat hozirgi O‘zbekistonning emas, balki hozirgi Qozog‘iston va Tojikistonning ham ma’lum hududlarini o‘z ichiga olgan Mirzacho‘l yerlarini o‘zlashtirish ishlari Oktabr to‘ntarishidan so‘ng amalga oshirila boshlandi[1]. Jumladan, 1918-yil may oyida Xalq Komissarlar Sovetining V.I.Lenin tomonidan imzolangan dekreti e’lon qilindi.Unda Turkistonda sug‘orish ishlariga 50 million so‘m ajratilishi va bu ishlarni tashkil qilishga qaratilgan tadbirlar ko‘zda tutilgan edi.

Mirzacho‘l va Dalvarzin dashtlarini o‘zlashtirish ishlarini olib borish va shu maqsadda qurilish ishlarini ham yo‘lga qo‘yish ko‘zlangan edi. Xususan, Xilkovo (Bekobod tumani) stansiyasida sement zavodini bunyod etish mo‘ljallangan edi. Mazkur zavod 1926- yili burilib, ishga tushirildi [1:62].

Bu borada boshlangan chora-tadbirlar 1930-yillarning oxirida davom ettirilish jarayonida, vohada yangi 110 ming gektar yerni meliorativ tadbirlarsiz o‘zlashtirilishi tufayli sizot suvlari ko‘tarilib, sho‘rlangan yerlar yanada ko‘paygan edi[2:9].1939, 1940, 1941, 1942-yillarda partov yerlarni o‘zlashtirish maqsadida sholi ekish sur’ati oshirib borilib, urush tufayli melioratsiya va irrigatsiya ishlari to‘xtab qoldi, oqibatda yer botqoqlanib, o‘tmishdagi dahshatli voqealar takrorlandi.

Hatto xuddi shu yillarda Sovet davlati paxta yetishtirish hajmini oshirish maqsadida ayrim xalqlarning peshonasiga “sotqin”, “xoin” kabi tamg‘alarni bosib, ko‘chiruvchilik siyosatini yuritgandi [3:25-27]. Oqibatda koreyslar, Qrim tatarlari, mesxeti turklari, shuningdek, urush asirlari kabi turli diasporalar Mirzacho‘lga o‘zlari uchun mutlaqo notanish bo‘lgan landshaftga ko‘chirildilar.

1948-yilda Farxod GESi ishga tushishi bilan 1947-1948-yillarda qurilgan Boyovut kanaliga suv ochildi, Do‘stlik kanalining suvi ko‘paydi va qo‘shimcha 40 ming gektar yerni o‘zlashtirish imkoni tug‘ildi. Sobiq Ittifoqning Mirzacho‘lni o‘zlashtirishda madaniylashtirilgan ko‘chirish siyosatining ko‘rinishi bo‘lgan “komsomol yo‘llanmasi” bilan yuborish, mehnat resurslari bilan uzviy ta’minlash dasturi shakllandi.

Ushbu chora-tadbirlar davomida 1949-yilning yanvarida bir guruh Andijonlik yoshlar oilasi bilan Mirzacho‘lda ishlash tashabbusi bilan chiqdilar [4:50-51]. Andijon yoshlarining tashabbusini Toshkent, Qashqadaryo, Farg‘ona va boshqa viloyatlar yoshlari ham qo‘llab chiqdilar.

SSSR Ministrlar Soveti huzuridagi Mehnat rezervlari Bosh boshqarmasi tomonidan 1956-1962-yillarda qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash bilim yurtlarini, hunar maktablarini va mehnat rezervlari maktablarini tamomlayotgan kishilardan Mirzacho‘lda yangi tashkil qilinayotgan sovxozlarga va qurilish tashkilotlarga 24,4 ming mexanizatorni va malakali binokor ishchini yuborilishini, shu jumladan, 1956-yilda 4,4 ming kishini (shundan O‘zbekiston SSRga 3 ming kishini va Qozog‘iston SSR ga 1,4 ming kishini) hamda 1957- yilda 5 ming kishini (shundan O‘zbekiston SSRga 3,3 ming kishini va Qozog‘iston SSRga 1,7 ming kishini) safarbar etilishi ma’lum qilindi[5:23].

Umuman olganda, Mirzacho‘l hududlarining o‘zlashtirilishi natijasida yangi shaharlar paydo bo‘lgan bo‘lsada, bu jarayonda olib borilgan ko‘chirish siyosati bir qator kamchiliklar bilan kechib, Sirdaryo va Jizzax viloyatlaridagi demografik holatga o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Jumladan, qurilish ishlarining sifatsizligi, quruvchilarning asosiy e’tibori qurilayotgan ob’ektlarning sifatiga emas, soniga qaratilganligi, qurilgan uylarning gazsiz, vodoprovodlarsiz, kanalizatsiyasiz topshirilishi, loyihalashtirish ishlaridagi qo‘pol xatoliklar oqibatida aholi kundalik hayoti va maishiy turmushida qiyinchiliklar kuchayib ketdi. Bunday omillar ta’sirida noqobil migratsion muhit yuzaga keldi, ya’ni ko‘chib kelganlarning katta qismi o‘z yurtlariga (yoki boshqa joylarga) qaytib ketishga majbur bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Аҳмедов Э.А. Ўзбекистон шаҳарлари. - Тошкент: Ўзбекистон, 1991.
2. Батькаев Ж.Я. Удобрение хлопчатника в условиях Голодной степи. - Тошкент: Фан, 1978. - С.9.
3. Бадриддинов.С. Корейслар Ўзбекистонга қандай қилиб келиб қолган? / Тарихий хотира - маънавият асоси. Республика илмий-назарий анжуман материаллари. III қисм. - Бухоро, 2010.
4. Абдунабиев А. Борьба за увеличение земель. - Ташкент: Узбекистан, 1966.
5. Қалимбетов Ж., Жақилов Д. “Мирзачўлни ўзлаштиришда Ўзбекистон ёшларининг иштироки”. - Тошкент: Ўзбекистон, 1958.